UMUMKASBIY FANLAR YORDAMIDA TEXNIKA OLIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARINING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH

Xudayqulov Rustam Zakirovich
Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti
katta o'qituvchisi, pedagogika fanlari bo'yich falsafa doktori (PhD)
Eshquvvatov Ulug'bek Abdulla o'g'li
Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti
katta o'qituvchisi, pedagogika fanlari bo'yich falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. Maqolada texnik oliy ta'lim muassasalarida talabalarni bo'lajak muhandislarning kasbiy faoliyatida yuzaga keladigan ilmiy-texnik xamda amaliy muammolarni hal qilish va tahlil qilish imkoniyatiga ega bo'lishi shakllantirishda tizimli fikrlash, kasbiy qobiliyatlarini rivojlantirish, oliy ta'limda Umumkasbiy fanlarni o'qitish sifatini ta'minlash va nazorat qilish uchun talabalarning kasbiy kompetentligni rivojlantirishda Umumkasbiy fanlarning ahamiyati ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: talaba, yondoshuv, kasbiy kompetentlik, kompetensiya, mutaxassis, muxandis, sifat, texnik, faoliyat.

Аннотация. В статье показано значение общепрофессиональных дисциплин в формировании у студентов в технических высших учебных заведениях системного мышления, развития профессиональных способностей, развития профессиональной компетентности студентов для обеспечения и контроля качества преподавания общепрофессиональных дисциплин в высшем образовании, чтобы они могли решать и анализировать научно-технические и практические проблемы, возникающие в профессиональной деятельности будущих инженеров.

Ключевые слова: студент, подход, профессиональная компетентность, компетентность, специалист, инженер, качество, техник, деятельность.

Abstract. The article shows the importance of Universal Sciences in the development of professional competency of students in order to develop systemic thinking, professional abilities, ensure and control the quality of teaching of universal subjects in higher education, in the formation of students in technical higher educational institutions to be able to solve and analyze practical problems in the professional activities of future engineers.

Keywords: student, approach, professional competence, competence, specialist, Specialist, Specialist, quality, technical, activity.

Kirish

Texnika oliy o'quv yurtlarida va ilmiy tadqiqot muassasalarida muhandislarni kasbiy faoliyatga tayyorlash, talabalarning o'quv-tadqiqot faoliyati bilan bog'liq

ISSN 3030-3907

kasbiy yo‘naltirilgan nazariy topshiriqlarni kengaytirish, ta’lim mazmunini tanlash prinsiplari, mezonlari va ularni takomillashtirish, ta’lim oluvchilarning umuminsoniy madaniyatini faol amaliy va ijodiy o‘zlashtirishlari uchun muhit yaratish, gumanitar va tabiiy-ilmiy bilimlar integratsiyasi va fanlararo aloqalarni o‘rnatish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ta'lim jamiyatni isloh qilish va uni tashqi dunyoga yanada ochiq va yangi texnologiyalar va bilimlarga yo‘naltirishning asosiy omilidir. Bu nafaqat jamiyatning rivojlanish istiqboli, balki har bir shaxsning individual faoliyatini oldindan belgilab beradi va belgilaydi. Bugungi kunda mehnat bozorida ustuvor ahamiyatga ega bo‘lgan kuchli raqobatga bardosh bera olish har bir mutaxassisdan texnologik malakaga ega bo‘lishni va uni izchil takomillashtirib borishni talab etadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Texnika oliy ta’lim muassasalari talabalarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish bo‘lajak muhandislarda Umumkasbiy fanlardan foydalanib kasbiy faoliyatdagi yuzaga keluvchi muammolarni xal etishda ijodkorlik faoliyati, mantiqiy fikrlash, mustaqil tayyorgarlik, ilmiy izlanish qobiliyati, ma’naviy va ilmiy qadriyatlarni ezozlash, tanqidiy fikrlash, boshqaruv qobiliyatlarini va shu bilan birga bo‘lajak muhandislarning kasbiy kompetentligini rivojlantiradi. Muhandislarning Umumkasbiy bilimlari sifati oliy ta’lim muassasalari jamoatchiligining doimo diqqat markazida bo‘lgan.

Oliy ta’lim muassasalari talabalarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish ma’lum mutaxassislik bo‘yicha kasbiy faoliyatni amalga oshirishni talab etadi. Kasbiy faoliyatni o‘zlashtirish jarayonida Umumkasbiy fanlarni o‘zlashtirishda tahliliy yondoshuvni amalga oshirish qobiliyati, shuningdek ma’lum darajada Umumkasbiy bilimlarni aniqlashtirish va rivojlantirish qobiliyatiga ega bo‘lish muxim ahamiyatga ega.

Texnika oliy ta’lim muassasalarida Umumkasbiy fanlarini o‘qitishning maqsadi, bu fanlarni o‘rganishning muammolarini aniqlash, tahlil etish va baholash ko‘nikma va malakalarini tarkib toptirishdir xamda o‘zlashtirilgan bilimlarning amaliy ahamiyatini o‘rganishdan va uni kasbiy faoliyatda qo‘llashga o‘rgatishdan iborat.

Oliy ta'lim muassasasi ta'lim jarayonining vazifasi faqatgina o‘quv va ilmiy ma'lumotlarni taqdim etishdan iborat emas. Balki, zamonaviy muhandislarni tayyorlashda kasbiy sifatlarni shakllantirish va aqliy qobiliyalarini rivojlantirish katta ahamiyat kasb etadi. Oliy ta'lim muassasalarida talabalarni innovasion muhandislik kasbiy faoliyatiga tayyorlash jarayoni quyidagi 4 ta yo‘nalish bo‘yicha bilim olishni o‘z ichiga oladi:

a) gumanitar va ijtimoiy–iqtisodiy;

ISSN 3030-3907

b) matematik va tabiiy-ilmiy;

v) umumkasbiy;

g) ixtisoslik


Talabalarga bunday asosda ta'lim berishda ularning kasbiy tayyorgarligini oshirish, kasbiy tayyorgarlikni ta'minlovchi fanlarini o‘qitish orqali amalga oshiriladi. Umumkasbiy fanlarni o‘qitishda bo‘lajak muxandislarda refleksiv predmetli faoliyat asosida reproduktiv, produktiv va kreativ xarakterli amaliy bilimlarini rivojlantirish, o‘quv va kasbiy faoliyat motivlarini shakllantirish kabi maqsadlari texnik mutaxassisning kabiy kompetentligiga bevosita dahldor hisoblanadi. Bu maqsadlardan esa, quyidagi vazifalar kelib chiqadi:

bo‘lajak muandislarda kasbiy sifatlarni tarkib toptirish yo‘lida ularning umumkasbiy tayyorgarligini rivojlantirish,

- umumkasbiy fanlarni talabalarga o‘qitish orqali ularning kasbiy faoliyat bilan bog‘liq tushuncha va tasavvurlarini rivojlantirish,
- o‘quv manbalarini kreativ yondashuv asosida mustaqil tahlil qilish orqali talabalarda kasbiy – amaliy yo‘naltirilgan(muammoli-faoliyatli, ijodiy) masalalarni darajalashtirish, taqqoslash, taxlil va sintez, mavxumlashtirish, umumlashtirish va fanlararo aloqadorlik o‘rnatish asosida takomillashtirish,
- talabalarning o‘zlashtirgan o‘quv materialini turli usullar orqali taqdim etishni bilishni rivojlantirish,
- bo‘lajak muxandislarning tadqiqotchilik qobiliyatlarini ta’lim jarayoniga faol kiritish yo‘li bilan rivojlantirish,

Oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayonining muhim qonuniyatlaridan biri fanlararo aloqadorlikka taalluqli qonuniyat hisoblanadi. Muhandislarni tayyorlashda fanlararo aloqadorlikka kasbiy tayyorgarlik kursining Umumkasbiy-umumtexnik va maxsus kurslar bilan aloqadorligidir [11]. Bo‘lajak muxandislar Umumkasbiy fanlarni o‘zlashtirish orqali kasbiy faoliyatlarida yuzaga keluvchi muammolarni ilmiy-ijodiy hal etishga erishadi, ilmiy ijod esa uning muammolarni hal etishda mantiqiy, tanqidiy va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi.

ISSN 3030-3907



1-rasm. Muhandislik ta’limini rivojlantirish bosqichlari

Bo‘lajak muhandislarning Umumkasbiy bilimlarini rivojlanirish mazmuniga quyidagi talablarni ifodalash mumkin: bitiruvchining bo‘lajak kasbini inobatga olib kasbiy kompetentligini rivojlantirishga xizmat qiluvchi Umumkasbiy fanlar bo‘limlariga alohida e’tibor qaratish, o‘zlashtirilgan bilimlarni amaliyotda qo‘llashni talab etuvchi kasbiy vazifalarning elementlarini kiritish, nazariy va amaliy masalalarni yechish uchun zarur Umumkasbiy bilimga ega bo‘lishlari. Texnika oliy ta’lim muassasalari talabalarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishning maqsadi, birinchidan, talaba muayyan kasbiy faoliyat bilan bog‘liq Umumkasbiy tayyorgarlikni egallashi (bilim, ko‘nikma va malakalar), ikkinchidan orttirilgan bilimlarni amaliyotda qo‘llash malakasini takomillashtirishdan iborat.

Kasbiy kompetentlikni rivojlantirish jarayonida inson tafakkurining usul va metodlari qatoriga induksiya va deduksiya, umumlashtirish va aniqlashtirish, analiz va sintez, abstraksiyalash, analogiya, tasniflash va sistemalashtirish kabilar qo‘shiladi. Talabalarning kasbiy kompetentliklarini rivojlantirish Umumkasbiy fanlar bo‘yicha tayyorgarliklarini yanada mustaxkamlash uchun, o‘qitish didaktikasi va metodikasi masalalarini rivojlantirishni ko‘zda tutgan xolda, takomillashgan metod, vosita va pedagogik texnologiyalar zarur bo‘ladi va ularni amaliyotga joriy etilishi ta’lim islohotlarining amalga oshirilishida muhim ahamiyatni kasb etadi.

Talabalarning ilmiy savodxonligi holati, tanlangan mazmun sohasining materiallariga ega bo‘lishdan tashqari, “kasbiy kompetenligi”ning rivojlanish darajasi bilan ham tavsiflanadi [30-35]. Ularning kasbiy kompetenligi “Umumkasbiy fanlar bo‘yicha bilim, ko‘nikma, tajribasi va qobiliyatlari majmui” sifatida baholanib, Umumkasbiy fanlardan masalalarning yechimlaridan

ISSN 3030-3907

foydalanib, kasbiy faoliyatlarida uchraydigan bilimlarni talab qiluvchi turli muammolarni muvaffaqiyatli hal etish imkonini beradi.

XULOSA

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, muxandis shaxsining ijodiyoti xayotiy strategiyasi bir qancha sifatlarga bog‘liqligini kuzatishimiz mumkin. Ko‘pgina taniqli shaxslarni xayoti o‘rganilib ko‘rilganda ularning shaxsiy ijod sifatlari ajralib turadi. Ularda quyidagi sifati ko‘rinadi:

- talabalarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish
- Umumkasbiy fanlar bo‘yicha olgan bilimlarini o‘z kasbiy faoliyatlarida amaliyotga tadbiq etish ko‘nikmalarini shakllantirishni
- bo‘lajak muhandislarda muayyan kasbiy muhim sifatlar tizimini shallantirish

Mutaxassis tayyorlashga qo‘yiladigan talablar davlat taraqqiyotining umumiy maqsadlaridan kelib chiqadi. Oliy kasbiy ta’limning rivojlanish yo‘nalishlarini oldindan ko‘ra bilish unga talabning eng muhim shartidir. Zamonaviy iqtisodiyot yuqori darajadagi tayyorgarlikka ega mutaxassislarni yani, ular eng yangi iqtisodiy, texnologik, ekologik, ijtimoiy-psixologik, boshqaruv haqidagi bilim va ko‘nikmalarni talab etadi. Bo‘lajak muhandislarning kasbiy tayyorgarligi loyiha tafakkurini, boshqaruv ko‘nikmalarini va texnik ob’ektlarni va ishlab chiqarish jarayonlarini butun hayotga tadbiq etishga qaratilgan bo‘lishi kerak. Yosh texnik mutaxassislarni ish holatini xolisona baholash va mustaqil ravishda, ijtimoiy va ma’naviy mas’uliyat bilan qaror qabul qilishga o‘rgatish ham birdek muhim hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” gi PF-5847-sonli qarori. www.lex.uz.
2. Musurmanova O. Kreativlik – pedagog kadrlar kompetentligini belgilovchi muhim indikator sifatida. Oliy ta’lim: muammo va echimlar respublika ilmiy-amaliy konferentsiyasi ilmiy maqola va tezislar to‘plami (2020 yil 25 may) 27-32 betlar.
3. Шило Т.Б. Структура креативности: современные взгляды на проблему. Тенденции развития психологии, педагогики и образования/Сборник научных трудов по итогам международной научно-практической конференции. Казань, 2014.
4. Шарипов Ш.С. Талабалар ихтирочилигини шаклланти-ришнинг педагогик шароитлари: Дисс. ... пед. фан. номз. – Т.,2001. – Б.140

ISSN 3030-3907

5. Eshquvvatov U.A., Talabalarning muhandislik kasbiga oid ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning didaktik talablari va shartlari. Ta’lim va innovatsion taqiqotlar jurnali 377-380 betlar.
6. Eshquvvatov, Ulug‘bek. “Talabalarni muhandislik kasbiga yo ‘naltirishning dolzarbligi”. " ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ АКМЕОЛОГИЯ" международный научно-методический журнал 1.3 (2023).
7. Аданников, А. А. (2001). Фундаментализация физико-математической подготовки в профессиональном образовании студентов технических вузов.
8. Каримов, Ш. Т., & Хожиакбарова, Г. (2017). Аналог задачи гурса для одного неклассического уравнения третьего порядка с сингулярным коэффициентом. Toshkent shahridagi turin politexnika universiteti, 121.

ISSN 3030-3907